

MAKTABGACHA TA'LIMNI BOSHQARUVINI ZAMONAVIY MEXANIZMLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Jo'raqulova Gulhayo Ikrom qizi

**Navoiy viloyati, Navbahor tumani
15-DMTT direktori o'rinbosari**

Tursunpo'latova Baxtigul Aliqulovna

**Qashqadaryo viloyati Shaxrisabz tumani
26-DMTT direktor o'rinbosari**

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'limni boshqarishda raxbar axloqi, ko'nikmasi va pedagogik mahoratining o'ziga xos tomonlari tahlil qilib berilgan. Shuningdek, raxbar shaxsining shakllanishida bugungi boshqaruvning zamonaviy mexanizmlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Menejment, Boshqaruv, Boshqaruv usuli, Liberal rahbar, Demokrat rahbar

IMPROVING PRESCHOOL EDUCATION MANAGEMENT ON THE BASIS OF MODERN MECHANISMS

Annotation

The article analyzes the specific aspects of the ethics, skills and pedagogical skills of a leader in managing preschool education. Also, the modern mechanisms of today's management in the formation of a leader's personality are scientifically and theoretically substantiated.

Keywords: Management, Management, Management method, Liberal leader, Democratic leader.

Hozirgi kunda "Menejment" so'zini ko'p bora eshitib turamiz? Ho'sh, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ushbu so'zdan foydalanamizmi? Qachon va qay hollarda?

"Menejment" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib, boshqaruv san'ati boshqaruv hokimiyati, tashkil etish, rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi degan ma'noni bildiradi. Menejment ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmuidir. Sodda qilib aytganda, menejment umumiy holda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi.

Menejment eng avvalo insonlarni boshqarish, ularni o'z faoliyatiga qiziqtirish, tadbirkorlikka, mehnatga ijodiy yondashish, o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish, sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallashiga ko'maklashish, yangilikka va ijodkorlikka chorlash, insonlarning faoliyatini boshqarish demakdir.

L.Fishman fikriga ko'ra, ta'lim menejmenti - bu ilmiy asosda tashkil etilgan, o'ziga xos pog'onaviylikka asoslangan boshqaruv: rahbar, pedagogik jamoa, ta'lim oluvchilar jamoasi. Shunga ko'ra boshqaruvni turli xil modellar asosida amalga oshirish mumkin: integral model, birinchi pog'ona - pedagogik jamoa faoliyatini boshqarish; ikkinchi pog'ona - bolalar faoliyatini boshqarish.

Bundan tashqari, olimlar ta'lim menejmetining bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ham ta'kidlab o'tishadi. Ular orasida quyidagi xususiyatlar asosiy hisoblanadi:

- ta'lim menejmenti "maqsadga muvofiqlik" so'zi bilan aniqlanadigan ma'naviy o'lchovga ega;

- ta'lim menejmenti - bu fan va san'at (chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi);

-menejment mazmunida o'z aksini topadigan shaxs, davlat va jamiyat manfaatlarining o'zaro dialektik birligi;

-ta'limni boshqarishda jamoatchilikning faol qatnashuvi.

Mamlakatimizda menejment fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan olimlardan M.Sharifxo'jaev, Yo.Abdullayevlar boshqaruv o'ziga xos yuksak san'at va mahoratni talab qiluvchi tanlov, shu tanlov asosida qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish ekanligini ta'kidlab, quyidagicha ta'rif beradilar: "Boshqaruv - bu tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir". Ta'lim menejmentida boshqaruvning quyidagi turlari mavjud:

Avtokratik rahbar: Bunday turdagi rahbar:

- buyruq chiqarish, qaror qabul qilish, xodimlarga jazo berish yoki rag'batlantirishda jamoa fikrini hisobga olmaydi;

- o'zini jamoadan uzoq tutadi; jamoa a'zolarini bevosita muloqotda bo'lishini chegaralab qo'yadi;

- o'zining noo'rin harakatlarining tanqid qilinishiga chiday olmaydi;

- o'ziga bo'ysinuvchilarning harakatlarini keskin ravishda tanqid qilishni yaxshi ko'radi;

-muttasil buyruq berishga, hammani o'z istaklariga so'zsiz bo'ysindirishga intiladi;

-ko'p gapirishni yoqtirmaydi, lekin bo'ysinuvchilari bilan muomilada bo'lganda uning rahbarlik g'ururi balandligi, o'zini katta tutishi sezilib turadi;

- o'ziga bo'ysinuvchilar oldida qovog'i solingan kayfiyatda bo'ladi.

Xullas, avtokratik rahbar o'ziga bino qo'ygan, dimog'dor, o'z qobiliyati va imkoniyatlariga ortiqcha ishonadigan, hukmini o'tkazishga intiladigan kishilardan yetishib chiqadi.

Bunday rahbar nazoratdan chetda qolsa o'sha yerda dag'allik, takabburlik, tazyiq o'tkazish, majbur qilish kabi o'ta salbiy holatlar avj oladi.

Biroq avtokratik boshqaruv usulini har jihatdan yomon deb bo'lmaydi. Ba'zi bir hollarda bo'ysinuvchilarning madaniy darajasi, axloqi pastligi sababli avtokratik uslubini tanlab olish ham ish berib qolishi mumkin.

Liberal rahbar Bunday turdagi rahbar:

- irodasiz, tashabbussiz bo'ladi;

- o'z zimmasiga mas'uliyat olishni yoqtirmaydi;

- ishni o'z holiga tashlab qo'yadi;

- idoraga nisbatan qat'iy bo'lishdan hayiqadi;

- o'zini haddan tashqari ehtiyot qiladi;

-biron xodim bilan ham aloqani buzishni istamaydi;

-talabchan emas, sust nazorat qiladi;

- suiiste'mollarga bevosita yo'l qo'ymasa ham o'zini bilmaslikka soladi.

Bunday rahbar tashqaridan ko'rsatiladigan ta'sirga moyilligi bilan ko'zga tashlanib turadi.

Demokratik rahbar bunday turdagi rahbar:

- boshqarish funksiyalarini jamoa fikri bilan hisoblashib amalga oshiradi;

- ishlab chiqarishni boshqarishga xodimlarni jalb qiladi;
- ularning bildirgan fikriga quloq soladi;
- ular bilan maslahatlashadi, ijobiy tamonlarini inobatga oladi;
- barcha bilan barobar va samimiy munosabatda bo'ladi, ustunligini bildirmaydi;
- buyruq berish yo'li bilan emas, balki ishonirish uslubida ish tutadi;
- buyruq rahbarlik uslubi bo'ysinuvchilarning shaxsiy tashabbusini, ijodiy faoliyatini rivojlantiradi va jamoada o'rtoqlik va ishchan muhitini yaratadi.

Boshqaruvchi qaysi boshqaruv shaklini qo'llashidan qat'iy nazar o'zining mustaqil dunyoqarashi, mustaqil fikri va quyidagilarni o'z ichiga olgan ma'naviy qiyofasi bo'lishi kerak.

Har qanday holatda ham rahbar qaysi bo'g'inda rahbar bo'lishidan qat'iy nazar o'zining asosiy majburiyati, ya'ni qo'l ostidagilarni o'zining misolida tarbiyalashni unutmash kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida, O'zbekistonda ta'lim sohasini boshqarish respublika tasarrufidagi yuqori hukumat va uning boshqarish organlari hamda mahalliy hukumat va uning boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi ko'rsatilgan.

Dunyo mamlakatlari jadal rivojlanayotgan, integratsiya va globallashtirish jarayoni faol amalga oshayotgan hozirgi davrda maktabgacha yoshdagi bolalarning yetuk, barkamol, aqlan va jismonan sog'lom, ruhan kuchli, ma'nadan boy bo'lib o'sishlari uchun keng sharoit yaratib berilmoqda. Bolaning iste'dod zahirasiqa mansub fe'l-atvor belgilarini barvaqt aniqlash mumkin hamda bu xususiyatlarning kichkintoylarda qay darajada tarkib topishi, asosan, ota-onalar va tarbiyachilarga bog'liqdir. Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining muhiti bo'ladan bo'lajak Al-Buxoriy, Ibn Sino yoxud Eynshteynni yetishtirishi yoki aksincha Alisher Navoiy, Bobur va Betxoven kabi ijodiy iqtidor sohibining qobiliyatini so'ndirishi mumkin. Boladagi iste'dod, avvalo, layoqat va qobiliyat shaklida namoyon bo'ladi. Hozirgi davrda pedagogika sohasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'lib, biz uni o'qitish tizimining axborotlashishi, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishda ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 30-sentabrda—Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonini imzoladi. Ushbu hujjat asosida Maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Bir so'z bilan shu kundan e'tiboran yurtimiz maktabgacha ta'lim tizimida yangi davr boshlandi desak, xato bo'lmaydi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari bolalarga ta'lim-tarbiya berishda —Mariya Montessori va —IMEN texnologiyalaridan keng foydalanmoqda.

Bugungi kunda jahon maktabgacha ta'lim tizimida italiyalik mashhur pedagog Mariya Montessorining mualliflik metodikasi juda keng tarqalgan. Bu pedagogik tizimning noan'anaviy 10 ta qoidasiga quyidagilar kiradi:

1. Bola – asosiy e'tiborda;
2. Pedagog bolaning diqqatini bo'lmasdan yo'naltiradi;
3. Bolalar atrofida muhit ularning qiziqishlariga qarab o'zgartiriladi;
4. Ba'zi mashg'ulotlarda yoshlari har xil bolalar birga shug'ullanishi mumkin;
5. Bolalar mashg'ulotlarda erkin bo'lishi kerak;

6. Bola yakka o'ynash yoki tengdoshlari bilan shug'ullanishni o'zi tanlaydi;
7. Bolalar qancha xohlasa, shuncha vaqt shug'ullanadi;
8. Guruhda, hatto kattalar ham amal qiladigan qoidalar mavjud;
9. Bolaga o'z ishini o'zi baholashiga imkon beriladi;
10. Bola murojaatisiz yordam berish taklif qilinmaydi;

Mariya Montessorining o'z davridagi butun insoniyatga quyidagi murojaati mavjud: —Bizda shunday muammo bor – kattalar rivojlanishning diqqat markazida turadi. Agar hokimiyat e'tiborini bolalarga, ular qalbiga qaratsa, biz tinchlik hukm surgan dunyoni quramiz. Bilim – tinchlik quolidir.

Bizga ma'lumki, har bir bolaning nimagadir qobiliyati bo'ladi. Mana shu qobiliyatlarni iloji boricha ertaroq aniqlab, uni to'g'ri yo'naltirishga aynan mana shunday umumlashgan mashg'ulotlar imkon beradi. Chunki mashg'ulotlar davomidagi pedagogik texnologiyalar majmuyida bolalar ham o'ylaydi, ham o'ynaydi, ham biladi, ham bilganini tushuntirib beradi. Mashg'ulotlar jarayonida bir yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalardan foydalanib qolmay, balki bir necha yo'nalishdagi pedagogik texnologiyalarni umumlashtirish, ya'ni pedtexnologiyalar majmuasidan samarali foydalanish mumkin.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maktabgacha ta'lim vazirligi oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan biri sanaladi.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihati, yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida —Bolalarni davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qabul qilish va navbatga qo'yish bo'yicha elektron dasturni joriy etish bo'yicha topshiriq berildi. Shunday ekan, ko'p o'tmay bizning maktabgacha ta'lim tizimimizda ham elektron qabul xizmati ishga tushishi kutilmoqda.

Koreya maktabgacha ta'lim tizimida tarbiyalanuvchi va ota-onalarning xohish-istaklariga alohida e'tibor bilan qaraladi, – ta'kidlaydi koreyalik mutaxassis O Kyong Mi. – Masalan, mashg'ulot xonasi turli xil burchaklardan (konstruktorlar, kitoblar, yumshoq o'yinchoqlar va h.k.) tashkil topgan bo'lib, bola o'zi istagan burchakda vaqtini o'tkazadi. Bundan tashqari, tushlikdan so'ng bolalar ota-onalarining xohishiga ko'ra uyquga ketadi. Agar ota-ona buni istamasa, bola passiv mashg'ulotlar bilan shug'ullanadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti hamda maktablardagi o'quv-tarbiya jarayoni bolalarning qobiliyati va layoqatini har tomonlama rivojlantirish, ularning shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur jarayonning mahsuldorligi pedagogning bolalarni yaxshi bilishi, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashiga bog'liq. Albatta, biz bu borada jahon tajribasidan o'z milliy mentalitetimizga xos bo'lgan jihatlarni olishimiz maqsadga muvofiq.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, bolalarning qobiliyatlarini erta aniqlashda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish, uning rivojlanishi uchun sharoit yaratib berish va iste'dodini namoyon qilishini ta'minlab berish nafaqat biror oila yoki tarbiyachining muvaffaqiyati, balki millatning, jamiyatning va insoniyatning muvaffaqiyati hisoblanadi. Chunki bola aynan shu iste'dodi ko'magida faqatgina jamiyatning yuksalishi uchun emas, balki insoniyatning taraqqiy qilishi uchun ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 mayda PQ-4312-sonli "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori.
21. «Ilk Qadam» davlat dasturi. - T., 2018.
22. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat dasturlari. - T., 2018.